Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

sariflaydi va aksincha o‘zining asosiy vositalarini sotishi natijasida esa karxonaga pul mablag‘lari kelib tushadi. Kelib tushgan va sariflangan pul mablag‘lari orasidagi farq investitsion faoliyatdan sof pul oqimini tashkil qiladi.

Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimi ($\mathbf{M_{SP}}$) bevosita korxonaning xususiy kapitali summasini o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, u eng avvalo o‘z mablag‘lari ($\mathbf{X_K}$) tarkibiga kiruvchi moddalarni hamda qisqa ($\mathbf{Q_{MQ}}$) va uzoq muddatli ($\mathbf{U_{MQ}}$) qarz mablag‘lari summasini o‘zgarishlari bilan bog‘liq, ya’ni

$$\mathbf{M_{SP} = \Delta X_K + \Delta U_{Mq} + \Delta Q_{Mq.}}$$

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, korxonaning o‘z va qarz mablag‘larini ko‘payishi bilan pul mablag‘lari tushumi ko‘payadi va aksincha ularni kamayishi esa pul mablag‘larini chiqib ketishini bildiradi.

Shunday qilib, pul mablag‘lari harakatini muntazam ravishda tahlil qilib borish nafaqat ular harakatini o‘rganish, balki ularni kirim va chiqimi orasidagi muozanatni ta’minlash, likvidlikni ta’minlash va qolaversa pul mablag‘larini optimal boshqarish orqali ularni samaradorligini ta’minlash imkonini beradi.

## MOLIYAVIY HISOBOTNILARNNING XALQARO STANDARTLARI (IFRS) GA MOSLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI.

**Soliev Bahodir Kamolivich**
*TDIU dotsenti, i.f.n.*
**Sattoraliev Tolibjon Jahongir o‘g‘li**
*TDIU, Andijon fakulteti 3 kurs talabasi*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada Moliyaviy hisobotni XMHS (IFRS) ga moslashtirishning bir qator afzalliklari hamda O‘zR Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish boyicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi № 4611 sonli qarorini bajarilishi natijasida erishiladigan yutuqlar haqida fikrlar bildiriladi.

***Tayanch so‘zlar*:** Moliya, standart, hisobot, investor, strategiya, raqobat, siyosat, investitsiya, hisob.

Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga (IFRS – International Financial Reporting Standards) moslashtirish jarayoni buxgalteriya hisobini xalqaro miqyosda tan olingan normalar va talablarga muvofiq qayta tashkil etishni anglatadi. Ushbu jarayon, ayniqsa, xalqaro bozorda faoliyat yuritishni yoki xorijiy investorlarni jalb



Published: 24.05.2025
**Cite this article:** Soliev Bahodir Kamolivich, Sattoraliev Tolibjon Jahongir o‘g‘li (2025). Moliyaviy hisobotnilarnning xalqaro standartlari (IFRS) ga moslashtirishning afzalliklari. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/348
*© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

qilishni maqsad qilgan kompaniyalar uchun muhimdir. Quyida bu jarayonning asosiy bosqichlari va afzalliklari haqida ma’lumot keltirilgan.

Moliyaviy hisobotni IFRS’ga moslashtirish bosqichlari:

1. **Joriy buxgalteriya tizimini tahlil qilish**. Kompaniya ichki buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarini milliy standartlarga asoslangan bo‘lsa, ularni IFRS talablariga solishtirib o‘rganish lozim.

2. **Hisobot elementlarini farqlash**. IFRS milliy standartlardan farq qiluvchi ko‘rsatkichlar, masalan, asosiy vositalar, zahiralar, aktiv va majburiyatlarning baholanishi, amortizatsiya metodlari va boshqa moliyaviy elementlarni belgilab chiqadi.

3. **Moslashtirish strategiyasini ishlab chiqish.** Kompaniya qanday elementlarni o‘zgartirish yoki moslashtirish kerakligini belgilaydi. Bu jarayonda buxgalteriya hisob siyosati va uslublari qayta ko‘rib chiqiladi.

4. **Xodimlarni tayyorlash.** Buxgalterlar va moliyaviy xodimlarni IFRS bo‘yicha o‘qitish va malakasini oshirish lozim. Bu, ayniqsa, yangi standartlar talablari bo‘yicha hisobotlarni to‘g‘ri tayyorlash uchun muhimdir.

5. **Texnologiyani moslashtirish.** Kompaniyada ishlatilayotgan buxgalteriya dasturlari va tizimlarini yangilash yoki moslashtirish talab qilinishi mumkin.

6. **Moliyaviy hisobotlarni qayta tayyorlash.** Kompaniya hisobotlarini xalqaro standartlar asosida qayta tuzib chiqadi va moslashtiradi.

7. **Moliyaviy hisobotni tasdiqlash va auditdan o‘tkazish.** Xalqaro standartlar asosida tayyorlangan hisobotlar mustaqil auditorlar tomonidan tasdiqlanishi zarur. Bu hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi.

**Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish bir qator afzalliklarga ega bo‘lib ularning eng muhumlarini sanab o‘tamiz.** Birinchidan, investitsion jozibadorligi. Xalqaro standartlarga mos keladigan hisobotlar xorijiy investorlar uchun aniq va tushunarli bo‘lib, ular tomonidan moliyaviy qarorlar qabul qilishni yengillashtiradi va tezlashtirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, Xalqaro bozorda raqobatbardoshligi. Kompaniya moliyaviy ma’lumotlarini xalqaro mezonlarda taqdim etilishi, global bozorlarda o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.

Uchinchidan, moliyaviy ko‘rsatkichlarning shaffofligi. Hisobotlar aniqroq va ishonchliroq bo‘lib, hamkorlar va aksiyadorlar bilan samarali aloqalarni ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, global miqyosda qabul qilinishi. Moliyaviy hisobotlar butun dunyoda tan olinadi va bir xil talqinda tushuniladi.

Beshinchidan, qaror qabul qilish uchun qulaylikgi. Rivojlangan va xalqaro darajadagi hisobot tuzilishi menejment uchun yaxshi qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish natijasida bir qator yutuqlarga erishish mumkin. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

♦ taqqoslashni yaxshilanishi – xalqaro standartlarga rioya qilish turli mamlakatlardagi kompaniyalarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini solishtirishni imkoniyatlarini oshiradiki, bu global savdo va investitsiyalarni osonlashtiradi;

♦ aniqlikni oshishi – xalqaro standartlar kompaniyalardan batafsilroq va shaffof moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishni talab qiladi. Bu kompaniyaning haqiqiy moliyaviy manzarasini aks ettiruvchi aniqlik darajasi yuqori bo‘lgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashga olib keladi;

♦ ishonchlilik darajasini oshishi – xalqaro miqyosda tan olingan standartlardan foydalanish shaffoflik va aniqlik majburiyatini bildirish va jahon miqyosida qabul qilingan ilg‘or tajribalarga moslashish orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasini sezilarli darajada oshiradi;

♦ havflarni yaxshiroq boshqarish – yaxshi tayyorlangan moliyaviy hisobot manfaatdor tomonlarga kompaniyaning moliyaviy ahvoli haqida muhim ma’lumotlarni taqdim etishi va potensial xavflarni aniqlashga yordam beradi;

♦ xarajatlarni tejash – xalqaro standartlarni qabul qilish hisobot berish jarayonlarini soddalashtirish va turli yurisdiksiyalar yoki manfaatdor tomonlar uchun bir nechta moliyaviy hisobotlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish orqali moliyaviy hisobotlarni tayyorlash xarajatlarini kamaytiradi.

Umuman olganda, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etish moliyaviy ma’lumotni ishonchli, taqqoslanadigan va shaffof bo‘lishiga yordam beradi, natijada investitsiya qarorlari to‘g‘risida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi va global moliyaviy bozorlarni mustahkamlaydi.

**Xulosa.** Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar (IFRS) ga o‘tish natijasida kompaniya oshkoralikni oshiradi, xalqaro investorlarga ishonchli ko‘rinadi, global bozorda raqobatbardosh bo‘ladi va moliyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonini yaxshilaydi. Bu kompaniyaning xalqaro sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va ishonchli moliyaviy boshqaruv tizimini yaratadi va shu bilan bir qatorda moliya sohasidagi ishlarni yanada rivojlantirish, investitsiya va biznes faoliyati uyushmalarini ko‘plab ma’muriy organlarni bog‘lashga imkon beradi

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A.A.Karimov, A.K.Ibragimov, N.K.Rizaev, N.M. Imamova – Buxgalteriya hisobi: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari / Darslik – T.: «MOLIYA», 2020 – 310 b.
2. Ш.Т.Эргашева. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник. – Т. : “Иннавацион ривожланиш нашриёт – матбаа уйи”, 2021. – 424 с.

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI MOLIYA TIZIMIGA TADBIQI

**Yusupov Muhtorjon**
*TDIU Andijon fakulteti dotsenti*
**Toshboyeva Xusnida Alisherovna**
*“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”yo’nalishi talabasi.*
*Tel:+99888 850-45-75*
*E-mail.@husnidatoshboyeva98.com.uz*

**ANNOTATSIYA**: Ushbu maqolada moliyaviy boshqaruv va unda zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiq etilishi orqali olinayotgan natijalar xakida fikrlar bildirilgan. SHuningdek axborot texnologiyalarining moliya tizimida boshqaruv jarayonlariga tadbiq qilinishi zamonaviy moliyaviy muassasalarning samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va mijozlar ishonchini qozonishda muhimligi va moliya tizimida qo‘llanilishining asosiy turlari tavsiflangan.

**Kalit so’zlar**: moliya tizimi, elektron to‘lov tizimlari, bank axborot tizimlari, blokcheyn texnologiyasi, Sun’iy intellect, platforma

## Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida axborot texnologiyalari har bir sohada muhim o‘rin egallab bormoqda. Ayniqsa, moliya tizimi kabi murakkab va dinamik sohalarda bu texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Moliya bozorlarining tezkor ishlashi, bank xizmatlarining avtomatlashtirilishi, elektron to‘lov tizimlarining kengayishi – bularning barchasi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Zamonaviy texnologiyalar orqali nafaqat moliyaviy operatsiyalar soddalashtirilmoqda, balki ularning xavfsizligi va shaffofligi ham ta’minlanmoqda. Shu sababli, moliya tizimini samarali boshqarishda axborot texnologiyalarining tadbiqi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining moliya tizimidagi o‘rni, ularning boshqaruv jarayoniga ta’siri va kelajakdagi istiqbollari yoritib beriladi.

## Adabiyotlar sharxi.

Qodirov A. va Tursunov O. (2021) axborot texnologiyalarining moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirishi va shaffofligini oshirishini ta’kidlaydi. To‘xtayev S.A.